



ANALYSIS OF THE THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT AND CLASSIFICATION OF DISABILITY INDICATORS

Bekjon Ismailov

Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Senior Lecturer, National University of Uzbekistan

E-mail: bekjon.4@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: persons with disabilities, disability indicator, physical impairment, mental activity, reforms, law.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: The article provides a detailed analysis of the concept of a disability indicator and issues related to its classification. Although the notion of a person with a disability is generally recognized, the specific indicators of disability differ. For example, individuals with visual impairments, individuals with hearing impairments, persons with physical disabilities, and others. These conditions are identified as disability indicators. In this sense, a disability indicator reflects a particular health-related problem of a person with a disability. The article also presents a scholarly-theoretical and comparative analysis of academic approaches to disability indicators. The author proposes original definitions regarding the concept of disability and its classification.

NOGIRONLIK BELGISI TUSHUNCHASI VA KLASSIFIKATSIYASINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Bekjon Ismailov

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: bekjon.4@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironlik belgisi, jismoniy nuqson, aqliy faoliyat, islohotlar, qonun.

Annatatsiya: Maqolada nogironlik belgisi tushunchasi va uning tasniflanish masalasi atroflicha tahlil qilingan. Ma'lumki,

nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi umumiy ma'noda, e'tirof etilsada, ularning nogironlik belgilari turlicha bo'ladi. misol uchun ko'rishida nogironligi bo'lgan shaxslar, eshitishida nogironligi bo'lgan shaxslar, jismoniy nogironligi bo'lgan shaxslar va hakazo. Yuqorida sanab o'tilgan holatlar nogironlik belgilari sifatida qayd etiladi. Shu ma'noda, nogironlik belgisi nogironlligi bo'lgan shaxslarning salomatligidagi muammoni namayon etadi. Shuningdek, maqolada, nogironlik belgisi masalasida bildirilgan olimlarning yondashuvlari ilmiy-nazariy, qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Nogironlik tushunchasi va uning klassifikatsiyasi bo'yicha, mualliflik ta'riflari taklif etilgan.

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ПОНЯТИЯ И КЛАССИФИКАЦИИ ПРИЗНАКОВ ИНВАЛИДНОСТИ

Бекжон Исмаилов

Доктор философии (PhD) по юридическим наукам

старший преподаватель Национального университета Узбекистана

E-mail: bekjon.4@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лица с инвалидностью, признак инвалидности, физический недостаток, умственная деятельность, реформы, закон.

Аннотация: В статье всесторонне анализируются понятие признака инвалидности и вопросы его классификации. Несмотря на то что понятие лица с инвалидностью признаётся в общем смысле, конкретные признаки инвалидности различаются. Например, лица с нарушением зрения, лица с нарушением слуха, лица с физическими нарушениями и др. Указанные состояния квалифицируются как признаки инвалидности. В данном контексте признак инвалидности отражает проблему, связанную со здоровьем лица с инвалидностью. В статье также проведён научно-теоретический и сравнительный анализ подходов учёных к вопросу признаков инвалидности. Предложены авторские определения понятия инвалидности и её классификации.

Krisih. O‘zbekistonda kuchli demokratik huquqiy davlat barpo etilar ekan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni fuqarolik jamiyatining to‘la huquqli a‘zosi sifatida qabul qilish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda respublikamizda strategik mazmunga ega bir qator islohotlar olib borilmoqda. Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqiy maqomining yuridik jihatdan tasdiqlanishi, bu toifa o‘quvchi-yoshlarning uzluksiz sifatli o‘quv-ta’lim jarayonlari bilan ta’minlanishi, jismoniy nuqsoni mavjud fuqarolarning nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitilishiga qarshi chora-tadbirlarning maxsus qonunchilik asoslari yordamida tartibga solinayotganligi shular jumlasidandir. Bizga ma’lumki, bu toifa shaxslarning uzluksiz sifatli ta’lim jarayonlariga tobora chuqur jalb qilinishi ularning jamiyatdagi huquqiy statusi yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, nogironligi bo‘lgan yoshlarga barcha darajada sifatli ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, kelgusi o‘quv yilidan boshlab alohida ta’lim olishga ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilda esa 40 foizi oddiy maktablarda o‘qishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, inklyuziv ta’limning resurs markazlari soni 14 barobarga ko‘payib, 200 tadan oshadi[1].

Asosiy qism. Qo‘shimcha ehtiyojli ta’lim oluvchilarga yaratib berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar jismoniy nuqsoni mavjud fuqarolar hayotini optimallashtirishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlarning nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotiga tatbiq etilishini kafolatlash maqsadida nogironligi bo‘lgan shaxslar tushunchalarini nazariy-huquqiy jihatdan aniqlashtirib olish, tushunchaga nisbatan aniq huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Shu ma’noda, nogironligi bo‘lgan shaxslar tushunchasi va ularning tasnifi masalasini ilmiy, yuridik nuqtayi nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar tushunchalari o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlar bo‘yicha huquqshunoslar, sotsiologlar, faylasuflar orasida bir qator ilmiy-tahliliy yondashuvlar mavjud. Aynan ilmiy qarashlar nogironligi bo‘lgan shaxslar tushunchalari mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. A. Valshmidtning ta’kidlashicha, nogironligi bo‘lgan shaxs fenomeni insonlar jismoniy holatlaridagi keskin cheklanishlar ta’sirida yuzaga keladi. Bu toifa shaxslar odatda ma’lum bir darajadagi reabilitatsion chora-tadbirlarga ehtiyojmand hisoblanadi.[2]

A. Valshmidtning shaxs jismoniy holatining keskin cheklanishi nogironlik belgilarini namoyon qiladi, degan fikriga nisbatan qo‘shilish mumkin, biroq bu mulohazani to‘liq qo‘llab-quvvatlab bo‘lmaydi. Negaki shaxs jismoniy holatining cheklanishi har doim ham nogironlik holatlarini keltirib chiqarmaydi. Bu jarayonni nazarimizda subyektiv baholay olish kerak.

Bundan tashqari yuqoridagi fikrda aqliy hamda ruhiy buzilish nogironlikni keltirib chiqaruvchi muhim omillar ekanligi e’tibordan chetda qoldirilgan. G. Hermesning

tushuntirishicha, nogironligi bo'lgan shaxslar nogironlik holatlarining salbiy oqibatlari ta'sirida ijtimoiy-siyosiy to'siqlarga duch keladigan shaxsdir. Shu bilan birga, nogironlik holatlari jismoniy, aqliy yoki ruhiy cheklanishi mavjud shaxslardagi ta'siriga ko'ra, deduktiv va induktiv tartibda tadqiq etilishi maqsadga muvofiq sanaladi.[3]

Bu mulohazada yondashuv asosan ijtimoiy modelga mutanosib bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslar davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishda ayrim ijtimoiy-siyosiy to'siqlarga duch kelishi bildiriladi. Shu o'rinda ochiq tan olish kerakki, nogironligi mavjud shaxslar aksariyat holatlarda siyosiy elitalarda katta o'ringa ega bo'lishmaydi. Qo'shimcha ehtiyojli insonlarning davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslariga ariza, shikoyat va taklif bilan murojaat qilishlari belgilangan tartibda qanoatlantiriladi. Bu toifa shaxslar odatda ijtimoiy-huquqiy vaziyatlarga ko'proq duch kelishadi. Ta'lim olish shaklini mustaqil belgilash va mehnat qilish huquqining kafolatlanishi kabi jarayonlarda aynan mana shu jihatlar yaqqol seziladi. O'ylashimizcha, G. Hermesning qarashlarida masalaning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilganda mazkur fikrning takomillashuviga erishilgan bo'lar edi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning tibbiy, ijtimoiy yoki huquqiy modelga asoslanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan fikrda aynan mana shu jihatlar inobatga olinmaganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

J. Bertinning aytishicha, jismoniy va ruhiy cheklanishlari ta'sirida hayot faoliyati o'z me'yorida bo'lmagan shaxslar nogironligi bo'lgan shaxslardir.[4, 12]

Darhaqiqat, shaxslardagi jismoniy qobiliyatlarning cheklanishi yoki ruhiy holatning keskin buzilishi insonlarda nogironlikni keltirib chiqaradi. Insondagi cheklangan qobiliyatlarni kompensatsiya qilish maqsadida, tabiiyki, qo'shimcha imtiyozlar va shart-sharoitlarning yaratilishi talab etiladi.

Alen Leplejning yondashuviga ko'ra esa, nogironligi bo'lgan shaxs ruhiy, aqliy, jismoniy qobiliyatlarning cheklanishlari oqibatlarini bartaraf etish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj insondir.[5]

Nogironlik mezonlariga asoslangan ushbu ta'rif tushuncha mazmunini mustahkamlashda alohida o'rin tutadi. Hayot faoliyatidagi inson qobiliyatlarining cheklanishi haqiqatan ham nogironlik holatlarini keltirib chiqaradi.

M. Leonardining ta'kidlashicha, nogironligi bo'lgan shaxslar jismoniy qobiliyatlarning cheklanishi ortidan ma'lum bir darajadagi imtiyozlarga ega bo'luvchi shaxslar sanaladi. Shuningdek, nogironlik holati bu toifa shaxslarga maxsus maqomga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.[6, 53]

T. Shakespeare, N. Vatsonlarning tushuntirishicha, jismoniy va aqliy qobiliyatlarning cheklanishi ta'sirida sezilarli murakkabliklarga duch keladigan va bu murakkabliklarni qo'shimcha shart-sharoitlar orqali bartaraf etishga muhtoj shaxslar nogironligi bo'lgan shaxslar

deb ataladi.[7, 25] Keyingi ikki fikr mazmunida nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasiga ijtimoiy-huquqiy jihatdan yondashuv mavjud ekanligi anglashilib turibdi. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishga oid olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shundan dalolat beradiki, ko'plab Yevropa davlatlarida, jumladan, Italiya, Fransiya, Germaniya, Angliya ijtimoiy-siyosiy muhitida bu toifa shaxslarga nisbatan shakllangan munosabat barqarorlikka asoslangan. To'g'ri, Yevropadagi bir nechta soha olimlarining ilmiy qarashlari bo'yicha bu masalaning o'rganilishi zarur sanalgan jihatlari o'z yechimini topdi, deb aytish bir qadar murakkab jarayondir. Shu bilan birga, yuqorida tahlil etilgan ilmiy qarashlar bu borada bizga ma'lum xulosalarga kelishimizga imkon beradi. O'rta Osiyo va rus olimlarining nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasiga nisbatan fikr-mulohazalari G'arbiy Yevropa olimlarining qarashlaridan biroz farq qiladi.

Yevropa va AQSH davlatlarida bu tushunchaga ijtimoiy-huquqiy model asosida yondashilsa, rus jamiyatida bu masalaga tibbiy nuqtayi nazardan mulohaza bildirish amaliyoti mavjud.

M.A. Usmonovanning ta'kidlashicha, aqliy yoki jismoniy nuqsonlari tufayli faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs nogiron deb tan olinadi. Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o'z-o'ziga xizmat qilish, yurish, yo'lni topa olish, hattoki o'z harakatini nazorat etish qobiliyati yoki imkoniyatini to'la yoxud qisman yo'qotganligida ifodalanadi[8, 19]. Darhaqiqat, kishini nogiron deb belgilash uchun unda aqliy, jismoniy tomondan jiddiy cheklanish kuzatilishi nazarda tutiladi. Bu toifa shaxslarning nogironlik holati ularning ta'lim olish imkoniyatlariga bevosita ta'sir o'tkazadi. M.A. Usmonovanning qarashiga ko'ra, aqliy yoki jismoniy nuqsoni tufayli faoliyati cheklangan shaxs nogironligi bo'lgan shaxs deb tan olinadi. Shaxsiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarda hayotiy faoliyat har doim ham cheklanavermaydi.

Hech kimga sir emaski, nogironligi bo'lgan shaxslar aqliy faoliyat bilan muntazam shug'ullana olish imkoniga ega. Masalaning ikkinchi tomoni esa, bu toifa shaxslar jismonan cheklangan bo'lishiga qaramasdan, har doim ham ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lishi mumkin emas. Ya'ni ular o'z aqliy faoliyatlari yordamida o'zlarini o'zlari mustaqil ta'minlay oladilar. Natijada ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasi kamayadi. M.A. Usmonovanning jismoniy va aqliy cheklanishlari bo'lgan shaxslarni nogironligi bo'lgan shaxslar borasidagi fikrlarini mantiqan qo'llab-quvvatlash mumkin. Biroq bu toifa shaxslarning ijtimoiy yordam yoki ijtimoiy himoyaga muntazam muhtojligi to'g'risidagi xulosalari, nazarimizda, bugungi kun e'tibori bilan dolzarblik kasb etmaydi. Aytmoqchi bo'lganimiz, shaxs aqliy yoki jismoniy cheklanganligi oqibatida nogironligi bo'lgan shaxs deb tan olinishi mumkin, lekin ular har doim ham ehtiyojmand hisoblanmaydi.

L.V. Usovaning yozishicha, nogironlik murakkab holat bo'lib, sohalar kesimida turlicha talqin etiladi. nogironligi mavjud shaxs aqliy, ruhiy yoxud jismoniy holati e'tibori bilan sezilarli nuqsonlarga duch kelgan insondir[9, 58]. L.V. Usovaning nogironlik sohalar kesimida turlicha talqin etiladi mazmunidagi fikri, nazarimizda, nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasini ochib berishga xizmat qilmaydi. Sababi, nogironligi bo'lgan shaxslarning jismoniy, ruhiy yoki aqliy nuqsonlari sohalar kesimi orqali emas, nogironlik holatlariga nisbatan shakllangan yondashuv modellari asosida talqin va tahlil etiladi. Ya'ni nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan shakllangan yondashuvlar tibbiy va ijtimoiy modellar asosida yuzaga kelganligini inobatga olsak, L.V. Usovaning ta'rifida keltirilgan nogironligi bo'lgan shaxs jismoniy holati e'tibori bilan sezilarli nuqsonlarga duch kelgan insondir, jumlasini ham bu o'rinda, bizning fikrimizcha, o'zini oqlamaydi. Boisi, har qanday shaxs hayot faoliyati davomida jiddiy jarohat olishi mumkin. Lekin olingan bu jarohat shaxsni ma'lum bir muddatga jismonan cheklab qo'ysa-da, uni nogiron deb atashimizga yetarli bo'lmaydi. Agar olingan jarohat davolab bo'lmaydigan ko'rinishda bo'lib, shaxs hayotiy faoliyatini jiddiy cheklaydigan taqdirda, nogironlik holatini qayd etish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Shu o'rinda nogironlik holatlari modellari borasida kichik bir mulohaza yuritsak: nogironlik modellariga alohida e'tibor qaratishimizning sababi, bu modellar umumlashgan bir holatda nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasiga aniqlik kiritishga xizmat qiladi. Jismoniy yoki mental nuqson ta'sirida hayot faoliyati jiddiy cheklanganligi nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasining tibbiy modeli sanaladi. Tushuncha tibbiy modeliga ko'ra, shaxsga bemor inson o'laroq munosabat bildiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxsga turli tibbiy muolaja va yordamlar ko'rsatish orqali uni jamoatchilik hayotiga moslashtirishga harakat qilinadi.

Nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasining ijtimoiy modeli, shaxs salomatligidagi jiddiy buzilishlar bilan birgalikda hayot faoliyatida o'z funksiyalarini to'laqonli bajarishi uchun davlat va jamiyatning bu toifa shaxslar holatlariga adaptiv munosabatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yuqoridagi mulohazalarda ta'kidlanganidek, nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasining tibbiy modelida integratsiya masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etsa, nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasining ijtimoiy modelida davlat va jamiyatning bu toifa shaxslarga nisbatan shakllanadigan inklyuziv yondashuvlari muhim o'rin tutadi. L.V. Usovaning nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasiga keltirgan ta'rifida tahlil qilingan jihatlarga umumiy bir mazmunda e'tibor qaratilgan. Oqibatda ushbu tushuncha ta'rifi tor ma'noga ega bo'lib qolgan.

M.G. Muravyevaning ta'kidlashicha, jismoniy yoki aqliy zaiflashuv inson hayot faoliyatini cheklashga olib keladi. Shu ma'noda ma'lum bir jismoniy yoxud aqliy nuqsonlari asorati ta'sirida o'z huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydigan shaxslar nogironligi bo'lgan insonlar deb tan olinadi[10, 157]. O'ylashimizcha, M.G. Muravyevaning bu boradagi qarashlari o'ziga xos subyektivlik kasb etadi. Qaysidir ma'noda shaxs jismonan yoki aqliy jihatdan cheklangan holatda,

tabiiyki, o'z huquq va erkinliklaridan mustaqil foydalana olmaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'zgalar yordamiga muhtojlik his etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni fuqarolik jamiyatining to'la huquqli a'zosi ekanligini inobatga olsak, yuqorida keltirilgan ta'rif huquqiy model elementlariga mantiqan mos kelishini tushunishimiz mumkin bo'ladi. Keltirilgan fikr va mulohazalarni qiyosiy tahlil etadigan bo'lsak, M.A. Usmonovanning qarashlarida asosan nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoya subyekti ekanligi masalasiga ko'proq urg'u berilganligini anglaymiz. L.V. Usova yondashuviga ko'ra esa, nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi tibbiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo'lib, asosan tushunchaga bir tomonlama yondashuv parametrlar sifatida olingan.

Ta'kidlanganidek, bu tushuncha bir tomonlama yondashuv bo'yicha konseptuallik kasb etmaydi. M.G. Muravyevaning mulohazalari bo'yicha esa bu tushunchaga, nisbatan huquqiy jihatdan yondashilgan. Aynan ushbu yondashuv bu toifa shaxslarning jamiyatdagi huquqiy maqomini belgilashda alohida o'rin tutadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasi masalasida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil olib borar ekanmiz, yuqorida qayd etilgan fikrlarni mantiqan isbotlangan qarash sifatida baholay olmaymiz. Sababi, nogironligi mavjud shaxslarning nogironlik holatlari hamda darajalari faqat jismoniy cheklanish bilan tavsiflanmaydi. Shaxs jismonan sog'lom bo'lishi mumkin, biroq uning ruhiy yoki aqliy holati normal hayot talablari darajasidan past bo'lishi ehtimolli holat hisoblanadi. Shaxsning aqliy, jismoniy yoki ruhiy tomondan nosog'lom bo'lishi o'sha shaxsning nogironlik kategoriyasiga mansub ekanligidan dalolat berib turadi. Bu tushunchani ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasining tibbiy va ijtimoiy tomonlarini hisobga olgan holda bu borada quyidagi mualliflik ta'riflarini ilmiy muomalaga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz. Mazkur tushuncha tibbiy nuqtayi nazardan quyidagicha ta'riflangani maqbul ko'riladi.

Nogironligi bo'lgan shaxs – kasallik, shikastlanish yoki nuqsonlarning oqibatlarini, hayotiy faoliyatni cheklashga olib keladigan va uning ijtimoiy himoyasiga muhtoj bo'lgan tana funksiyalarining doimiy buzilishi bilan sog'lig'i buzilgan shaxs. Ijtimoiy jihatdan esa bu toifa insonlar nogironlik holatlari ta'sirida, mustaqil hayotiy faoliyatlarini to'laqonli amalga oshira olmaydigan shaxslar sifatida namoyon bo'lishadi. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida keltirilgan ta'rif ushbu tushunchaning umumiy mazmunini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

"Nogironligi bo'lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs"[11]. Bizning fikrimizcha, "O'zbekiston Respublikasining nogironligi bo'lgan

shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunda keltirilgan ta'rif ushbu tushunchani yuridik jihatdan ochib berish imkoniga ega emas. Boisi ta'rif mazmuni asosan tibbiy va ijtimoiy modellar kriteriyalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Mavjud qonunchilik normalariga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslar fuqarolik jamiyatining to'la huquqli subyekti hisoblanadi. Aynan mana shu jihat ushbu ta'rifning bosh mezoni sifatida olinishi lozim edi. O'ylashimizcha, nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltirsak, tushunchaning konseptuallik darajasi yanada mustahkamlangan bo'ladi. Nogironligi bo'lgan shaxs, belgilangan tartibda, maxsus huquqlar va umumiy majburiyatlarga ega bo'ladigan, jamiyatning to'la huquqli subyekti hisoblanadigan, jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor nuqsonlari mavjudligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qo'shimcha imtiyoz va shart-sharoitlar yaratilishiga ehtiyojmand shaxs. Nazarimizda, ushbu ta'rif tushunchani yuridik jihatdan tavsiflashda eng maqbul variant hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar tushunchalari o'rtasida olimlar fikrlarida ham ko'rsatib o'tish mumkin bo'lgan farqli jihatlar nihoyatda kam. Bu borada bildirilgan mulohazalar qiyosiy o'rganilar ekan, keltirilgan fikrlarda bir-birini to'ldirish, takrorlash holatlari ko'p uchraydi. Vaholanki, bu tushunchalar nazariy jihatdan bir-biridan sezilarli farq qiladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar holatlarining tibbiy model orqali xarakterlanishi yoxud nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy model orqali tavsiflanishi mazkur tushunchalar orasidagi farqli jihatlarni ilmiy asoslantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, nogironlik belgilarining bu toifa shaxslar hayotiy faoliyatiga bo'ladigan ta'siri ham tushunchalar orasidagi farqli tomonlarni belgilovchi muhim faktorlardan biri sanaladi. Aytmoqchimizki, bu tushunchalar qonunchilik nuqtayi nazaridan ma'lum bir ta'rifga ega bo'lsa-da, bugungi kunga qadar o'z ilmiy yechimini topmagan. Ya'ni tushunchalarning ilmiy-nazariy jihatlariga aniqlik kiritilmagan.

Bizning fikrimizcha, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar va nogironligi bo'lgan shaxs tushunchalari o'rtasidagi nazariy asoslarni tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar odatda mustaqil harakatlana olish imkoniyatidan mahrum insonlar sanalishadi. Ya'ni ularning tayanch harakat tizimida jiddiy buzilish kuzatiladi. Oqibatda esa ular nomidan maxsus tayinlangan vasiy ish ko'radi. Nogironligi bo'lgan shaxslar esa ularga nisbatan kengroq muomala layoqatiga ega shaxslar hisoblanadi. Agar masalaga ko'zi ojizlar misolida yondashadigan bo'lsak, bu toifa insonlar o'zlari mustaqil ijtimoiy-huquqiy munosabatlarda erkin ishtirok eta oladilar. Ularning faksimil imzo yordamida zaruriy hujjatlarni mustaqil imzolay olish imkoniga ega ekanliklari bu toifa shaxslarni jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan kengroq muomala layoqatiga ega bo'lishlarini bildiradi. Bu tushunchalar nuqsonlarning yuzaga

kelish vaziyatlari e'tibori bilan bir-biridan sezilarli farq qiladi. Misol uchun, jismoniy cheklanganlik holatlari aksariyat vaziyatlarda orttirma shaklda yuzaga keladi. Nogironlik holatlari esa irsiy kasalliklar yoki tashqi omillar ta'sirida vujudga keladi. Yuridik jihatdan esa mazkur tushunchalar nogironlik holatlariga ko'ra belgilanadigan huquqiy maqom asosida bir-biridan sezilarli farq qiladi. V.L. Kabakov, I.V. Balyasnikova, L.Y. Butorinalarning ta'kidlashicha, nogironlik holatlari sabablari bartaraf etilmasa, inson hayot faoliyati uchun jiddiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Kasallikning noto'g'ri davolanishi oqibatida ham nogironlik holatlari qayd etilishi mumkin[12, 39].

Darhaqiqat, nogironlik holatlari tug'ma yoki orttirma shaklda yuzaga kelishidan tashqari mavjud kasallikni noto'g'ri muolaja qilish oqibatida ham vujudga keladi. Bu statistik ma'lumotlar bo'yicha juda kam qayd etilgan bo'lsa-da, nazariy jihatdan e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masalalardan biri sanaladi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhleri, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi[13]. Nogironlik holatlarining kelib chiqish sabablariga ko'ra bu toifa shaxslarning klassifikatsiyasi belgilanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar jismoniy, aqliy yoki ruhiy cheklanganlik darajalariga muvofiq ijtimoiy-huquqiy jihatdan quyidagicha tasniflanadi:

- umumiy kasalliklar bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar;
- mehnat qilish jarayonida baxtsiz hodisalar oqibatida nogironlik holatiga tushib qolgan shaxslar;
- bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar.

Tibbiy nuqtayi nazardan nogironligi bo'lgan shaxslarni quyidagicha tasniflash taklif etiladi:

1. Tayanch harakat apparat tizimida jiddiy nuqsoni bo'lgan shaxslar; bu toifa nogironligi bo'lgan shaxslar tipiga asosan, mustaqil o'z xatti-harakatlarini amalga oshira olmaydigan yoxud qo'shimcha harakat vositalari yordamida harakatlanadigan shaxslar mansubdirlar.

2. Ko'rish qobiliyatida nuqsoni mavjud shaxslar; bu toifa shaxslar tipiga ko'rish qobiliyati mutlaqo cheklangan hamda ko'rish qobiliyatida jiddiy nuqsoni bo'lgan shaxslar kiradi.

3. Eshitish qobiliyatida nuqsoni mavjud shaxslar; bu toifadagi insonlar odatda mutlaqo eshitmaydigan yoki eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar sanalishadi.

4. Bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan shaxslar.

Shu ma'noda kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli

ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi. O'zbekistonda nogironlik holatlari Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi. Nogironlik mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab guruhlariga bo'linadi. 1-guruh nogironlikka mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqalarning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar; 2-guruh nogironlikka mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat'i nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar; 3-guruh nogironlikka mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi. Ularning cheklangan qobiliyatlarini kompensatsiya qilish maqsadida qo'shimcha texnik vositalar bilan ta'minlash chora-tadbirlari tizimli ravishda amalga oshiriladi. Nogironlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya qilish orqali faol hayotga, mehnatga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Hech kimga sir emaski, har qanday nogironlik holati inson hayot faoliyatiga bevosita salbiy jihatdan jiddiy ta'sir o'tkazadi. Shu ma'noda nogironlik holatlarini qayd etishda, nogironlik guruhlarini aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qobiliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi yoxud bu kabi qobiliyatning mavjud emasligi; bunda nogironligi bo'lgan shaxs tayanch harakat tizimidagi jiddiy nuqson ta'sirida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkonidan mahrum sanaladi. Bu vaziyatda orttirilgan jarohat yoki tug'ma nuqsonning davolashga imkonsizlik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2. Mustaqil tarzda harakatlana olmaslik faktori; bu yerda nogironligi bo'lgan shaxs o'z-o'ziga xizmat ko'rsata oladi, biroq shaxs davlat va jamoat hayot faoliyatida ishtirok etishda o'zgalar yordamiga muhtojlik his etadi.

3. Bu jarayon ham nogironligi bo'lgan shaxslarni klassifikatsiyalashtirishda muhim mezonlardan biri sanaladi.

4. O'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik holati. Bu jarayon bevosita nogironligi bo'lgan shaxsning ruhiy holatlari bilan bog'liq bo'ladi. Shaxslardagi surunkali ruhiy holatlarning o'z maromida bo'lmashligi nogironlikning bosh belgilaridan biridir.

5. Shaxslardagi u yoki bu qobiliyatlarning qo'shma shaklda cheklanishi; bu yerda ayrim toifa shaxslardagi eshitish va ko'rish qobiliyatining keskin buzilishi nazarda tutiladi. Yuqorida nogironlikni belgilash uchun tavsiya etilayotgan mezonlar asosan I guruh nogironlik holatlarini qayd etishda muhim o'rin tutadi, degan fikrdamiz. I guruh nogironlik holatlarini qayd etishda bosh mezon sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarning o'zgalar yordamiga muhtojlik darajasi e'tiborga olinishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda nogironligi bo'lgan shaxslar klassifikatsiyasi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqishni taklif etamiz:

nogironligi bo'lgan shaxslar klassifikatsiyasi deb, qo'shimcha ehtiyojli shaxslarning nogironlik belgilari va holatlariga ko'ra, mavjud qonunchilik asoslariga muvofiq guruhlantirilishiga aytiladi. Bu toifa shaxslarning nogironlik holatlariga ko'ra guruhlantirilishi ularning huquqiy maqomini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaati // <https://kun.uz/docs/5078511>
2. Anne Waldschmidt. Disability Studies: Individuelles, soziales und/oder kulturelles Modell von Behinderung? // <http://bidok.uibk.ac.at/library/waldschmidt-modell.html>
3. Gisela Hermes. Disability Studies // <https://dista.uniability.org/glossar/disability-studies-2/>
4. Giovanni Bertin Corso di Laurea Magistrale in Governance delle Organizzazioni Pubbliche Tesi di Laurea: La disabilità e i nuovi bisogni Modello innovativo nell'area del nord est.2019. – P. 12.
5. Alain Leplège Dans Champ psychosomatique 2009/3 (n° 55), pages 97 à 109 <https://www.cairn.info/revue-champ-psychosomatique-2009-3-page-97.htm> // <https://www.cairn.info/publications-de-Alain-Lepl%C3%A8ge--53826.htm>
6. Leonardi M. Definire la disabilità e ridefinire le politiche alla luce della Classificazione ICF, in G. Borgnolo et al. (a cura di), ICF e Convenzione ONU sui diritti delle persone con disabilità. Nuove prospettive per l'inclusione, Erickson, Trento 2009, pp. 45-54.
7. Shakespeare T., Watson N. The Social Model of Disability: an Outdated Ideology? cit., 2001, p. 25.
8. Усмонова М. А. Ўзбекистонда кексалар ва ногиронларни ижтимоий ҳимоялашнинг ташкилий-ҳуқуқий муаммолари: Ю. ф. н. ... дисс. автореф. – Т., 1995. – Б. 19.
9. Усова Л. В. К вопросу об интерпретации понятий “инвалид” и “инвалидность”. 5-сборник. – Кубань: Кубанский государственный университет, 2020. – С. 98.
10. Муравьева М. Г. Калеки, инвалиды или люди с ограниченными возможностями? Обзор истории инвалидности, Муравьева М. Г. Инвалиды или люди с ограниченными возможностями // The journal of social policy studies. Том 10. 2012. – С. 157.
11. O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/5049511>
12. Кабаков В. Л., Балясникова И. В., Буторина Л. Ю. Причина инвалидности по зрению у детей на Севере // Экология человека. 2005 – С. 39.

13. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida. 03.09.1993-yildagi 938-XII-son. 16-modda.